



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITY NTM REKTORINING  
BUYRUG'I

2024-yil "19" 11

№ 56-11

Urganch sh.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
2024-yil 11-noyabrdagi № 428-sonli buyrug'ining  
ijrosi to'g'risida**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi Talaba-yoshlar o'rtasida "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzularida insholar tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi № 428-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1. Barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani hamda kafedra mudirlariga:**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi Talaba-yoshlar o'rtasida "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzularida insholar tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi № 428-sonli buyrug'i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Talaba-yoshlar o'rtasida "**Jadidlar jasorati – millatimiz faxri**" hamda "**Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari**" mavzularida insholar tanlovi (keyingi o'rinlarda – Tanlov) 2024/2025-o'quv yilidan boshlab doimiy o'tkazilib borilsin.

**3. Quyidagilar:**

- talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzularida insholar Tanlovini o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

- talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzularida insholar Tanlovini o'tkazish Nizomi 2-ilovaga muvofiq;

**4. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i (M.Matnazarov)ga:**

- Tanlovni tashkil etish bilan bog'liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin hamda Tanlovni nizom talablari asosida yuqori saviyada o'tkazishni ta'minlasin.

- "Jadidlar jasorati – millatimiz faxri" hamda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzularida insholar Tanlovining universitet bosqichi g'oliblarini taqdirlash choralari ko'rihsin.

**5. Universitet prorektorlari, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani hamda kafedra mudirlariga:**

- Tanlovda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan ixtiyoriy ravishda ishtirok etish istagini bildirgan talaba-yoshlarning o'z iqtidorini namoyon qilishiga sharoitlar yaratilsin;

**6. Bosh hisobchi (A.Narimanov)ga:**

- Tanlov natijalari yuzasidan rasmiylashtirilgan bayonnoma taqdim etilganidan so'ng, universitet hisobidan g'olib bo'lgan ishtirokchilarga belgilangan tartibda pul mukofotlarini ajratilsin;

**7. Matbuot kotibi (M.Karimova, J.Normatov)ga:**

- Tanlov o'tkazilishi yuzasidan joriy yilning dekabr oyidan boshlab universitetning rasmiy kanalida e'lon berib borsin.

8. Mazkur buyruq ijrosi nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.Masharipov zimmasiga yuklansin.

**Asos:** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi № 428-sonli buyrug'i.

**Rektor**



**M.Ishmuratov**